

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

manbalar asosidagi tahlili.....	347
G.Sh.Shaydullayeva	
Turon sivilizatsiyasi aholisining ijtimoiy holatiga madaniy aloqalarning ta'siri.....	353
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1960–1980-yillarda qishloq xo'jaligi boshqaruvida byurokratik muammolar va davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari.....	358
X.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	362
N.R.G'ulomova	
Ziyorat turizmi: uning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	367
Sh.F.Allanazarov	
Komil Xorazmiy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tahlili.....	380
A.T.Toshmamatov	
O'zbek va ukrain xalqlari madaniy uyg'unligining tarixiy namoyasi: Xasanovlar oilasi misolida	380
Sh.A.Mirzamidinova	
Ashurali Zohiriyning shaxsiyati, faoliyati va merosi.....	384
O.B.Abdunosirova	
Amir Temur va Temuriylar davrida pul munosabatlari	390
M.X.Muzaffarov	
Vengriya va Turkiy dunyo: tarixiy bog'lanish va aloqalari.....	393
S.F.Norbekov	
Sharqiy Slavyan diasporasining Turkistondagi madaniy va ma'rifiy hayoti (1918–1924 yy.).....	398

ILMIY AXBOROT

I.T.Boltaboev	
Ijtimoiy adolat konsepsiyasining zamonaviy falsafiy talqinlari.....	409
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1945–1980 yillarda sug'orish va melioratsiya tizimining rivojlanishi	413
N.M.Axmadiyev	
Yangi O'zbekistonda kelesajak avlod tarbiyasiga gerontologik mexanizmini yanada rivojlantirish.....	417
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi hamda globallashuv sharoitida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi	420
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiy ta'limotida borliq nazariyasi.	425
Sh.T.Abbosova	
Buyuk ipak yo'lida ilm-fan va madaniy muloqot rivoji.....	431
Sh.N.Niyozova	
Vatanparvarlikning ma'naviy-falsafiy mohiyati va shaxsning ijtimoiy-axloqiy yetukligi.....	434
Sh.X.Matyobova	
Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning Yangi O'zbekistonga ta'siri.....	438
R.D.Dehqonov	
Teatr san'atining yoshlar ruhiy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri	442
Z.T.Tursunboyev	
O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olishda konformizm omilining ahamiyati	446
R.D.Dehqonov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda teatr san'atining o'rni.....	451
Z.T.Tursunboyev	
“Tazyiq va zo'ravonlik” tushunchalari: turlari va oilada oldini olish mexanizmlari	455
N.T.Xolikov	
Globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	459
Sh.A.Rasulova	
Harakatlar strategiyasidan Yangi O'zbekistongacha: xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy mavqeiini mustahkamlanishi	462
A.A.Aloxunov	



UO'K: 94-055.2(575.171)

RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI

МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В
ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ

MECHANISMS FOR ENSURING INFORMATION SECURITY IN THE DIGITAL SOCIETY

Burxanov Xusniddin

O'zbekiston Milliy universiteti Sotsiologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlashning nazariy-metodologik asoslari, milliy saytlar transformatsiyasida shaxs axborot xavfsizligini ta'minlash jarayoni o'rganilgan. Shuningdek, milliy saytlar transformatsiyasining demokratik islohotlar chuqurlashuviga mutanosibli va raqamli jamiyatda milliy saytlarning jamoatchilik fikrini shakllantirishga ta'siri ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari internet tarmog'idagi milliy saytlarning axborot xavfsizligini ta'minlash jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy omillarini aniqlangan va yangi O'zbekistonda milliy saytlar faoliyati takomillashuvining zamonaviy mexanizmlarini mazmunini ko'rsatib berilgan. Shu bilan birgacha raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Аннотация

В данной статье исследуются теоретико-методологические основы обеспечения информационной безопасности в цифровом обществе, процесс обеспечения информационной безопасности личности при трансформации национальных сайтов. Рассматривается соразмерность трансформации национальных сайтов углублению демократических реформ и влияние национальных сайтов на формирование общественного мнения в цифровом обществе. Выявляются социальные факторы, влияющие на процесс обеспечения информационной безопасности национальных сайтов в сети Интернет, раскрывается содержание современных механизмов совершенствования деятельности национальных сайтов в новом Узбекистане. Разработаны научно обоснованные предложения по обеспечению информационной безопасности в цифровом обществе.

Abstract

This article studies the theoretical and methodological foundations of ensuring information security in the digital society, the process of ensuring personal information security in the transformation of national sites. It also examines the proportionality of the transformation of national sites to the deepening of democratic reforms and the impact of national sites on the formation of public opinion in the digital society. In addition, it identifies social factors that affect the process of ensuring information security of national sites on the Internet and indicates the content of modern mechanisms for improving the activities of national sites in the new Uzbekistan. At the same time, scientifically based proposals have been developed to ensure information security in the digital society.

Kalit so'zlar: Internet, axborot xavfsizligi, raqamli jamiyat, datifikatsiya, sun'iy intellekt, milliy saytlar, texnologiya, raqamli media, ijtimoiy ta'sir, ijtimoiy institut.

Ключевые слова: Интернет, информационная безопасность, цифровое общество, дамафикатсия, искусственный интеллект, национальные сайты, технологии, цифровые медиа, социальное воздействие, социальный институт.

Key words: Internet, information security, digital society, datafication, artificial intelligence, national sites, technology, digital media, social impact, social institution.

KIRISH

O'zbekistonda yangi taraqqiyot bosqichida inson qadri yuksalishiga tizimli e'tibor oshganligi, ushbu fenomenning davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyatida muhim o'rin egallaganligi bilan izohlanadi. Shuning uchun ham "bunday vaziyatda mamlakatimiz iqtisodiyotining muntazam takomillashib borishini ta'minlaydigan mexanizmlarni joriy etish, barqaror iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'liq vazifalarni puxta belgilab olish" [1] vazifasi milliy saytlar faoliyati sotsiologik jihatdan chuqurroq tadqiq qilinishi zaruriyatini yuzaga keltirdi. Raqamli jamiyat sharoitida internetdagi milliy saytlarning raqamli jamiyat taraqqiyotida, ayniqsa, shaxsning ma'naviy, axloqiy dunyosi shakllanishidagi o'rnini ilmiy asoslash, ushbu jarayon ta'sirida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy qo'nikmalarni bilish, o'zlashtirish mexanizmlarini yaratish, rivojlantirish dolzarb masaladir. Shuning

TARIX

uchun ham shaxsning bozor iqtisodiyoti munosabatlari qiyinchiliklariga, murakkabliklariga, ijtimoiy, iqtisodiy xarakter mazmunidagi raqobatga shaxsiy ko'nikma hosil qilish, ya'ni ularga bardosh berish mexanizmlarining ilmiy echimini topishga harakat immunitetini qaror toptirish to'g'risidagi ta'limotlarni, mustaqil yondashuvlar mazmuni, maqsadini sotsiologiya nuqtai nazaridan ilmiy jihatdan tadqiq etish zarur.

Rivojlangan davlatlarning sotsiologiya yo'nalishidagi ilmiy tadqiqot markazlari, institut va etakchi universitetlari laboratoriyalarida raqamli jamiyatda milliy saytlar transformatsiyasi jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarining ilmiy-nazariy hamda amaliy-fundamental mavzulardagi tadqiqotlar masshtabi chuqurlashtirildi. Bu borada jahondagi ilmiy markazlar axborot texnologiyalarini rivojlanishini jamiyatga ta'siri va raqamli jamiyatni rivojlanishi natijasida insonlarni platformalarga o'rganishi hamda ekotizmni shakllanishi jarayonida sun'iy intellektga asoslangan saytlarni rivojlantirish va axborot xavfsizligini ta'minlash yo'nalishida katta loyihalar va tadqiqotlar ustida ish olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2023 yil 31 maydagi PQ-167-son "O'zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi ob'ektlari kiberxavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentabrdagi 707-son "Butunjahon internet tarmog'ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va 2019-yil 21-oktabrdagi 888-son "Internet jahon axborot tarmog'ida milliy kontentni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida belgilangan vazifalarni ijtimoiy, iqtisodiy hayotga, raqamli jamiyat amaliyotiga joriy qilish va sohaga oid boshqa normativ huquqiy hujjatlar orqali tushunishga muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Raqamli jamiyat rivojlanishi g'oyasining ommalashuviga sotsiolog nazariyotchi olimlarning "Kelajakdagi postindustrial jamiyat" nomli kitobi muhim metodologik manbalar qatoriga kiradi [2]. Tadqiqotda sotsiolog olim jamiyat rivojlanishini uch agrar, industrialashgan va postindustrialashgan bosqichlarga ajratadi. Bunda postindustrialashgan bosqichda raqamlashgan jamiyatga o'tilishi isbotlanadi. Shuningdek, olimlar tomonidan axborot xavfsizligi tushunchasi texnologik va ijtimoiy jihatdan yondashilishi mumkin bo'lgan tushuncha sifatida izohlanadi [3] va axborot xavfsizligini ta'minlash texnologik echimga ega ekanligi hamda ijtimoiy jihatdan ham axborot xavfsizligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasi ekanligini axborot xavfsizligi bo'yicha nazariyalarda ko'rsatib o'tiladi [4].

Axborot xavfsizligini jamoaviy xavfsizlik sifatida qarashlar mavjud. Ushbu masalada g'arb olimlari tomonidan ijtimoiy tarmoqlarni jamoaning yosh qatlamiga salbiy ta'sir etishi, jamoatchilikda raqamli jamiyatni kuchayib borayotganligi kabi omillar isbotlangan [5]. Shuningdek, bu yo'nalishda Sharq kishisi uchun individualizm hamisha halokat, jamoada uyg'unlashuv esa sokinlik va bexavotirlik omili bo'lib kelgan. Jamoaviy xavfsizlikni ta'minlash ehtiyoji Sharqda qadimgi davrlardayoq davlatchilik tizimlarini tarkib toptirdi. [6] Bu bugungi kunda jamoalar internet milliy segmentlarini yaratish orqali o'z xavfsizligini ta'minlashga qilgan harakatlarida ko'rinadi. Bundan tashqari yoshlar afzal ko'radigan va qabul qiladigan asosiy axborot internet va ijtimoiy tarmoqlardan olinadi [7].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, raqamli jamiyatda milliy saytlar transformatsiyasi jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari ijtimoiy jarayon sifatida o'rganilmagan. Raqamli jamiyat sharoitida axborot xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy mexanizmlari ishlab chiqilmagan. Shuni hisobga olgan holda ushbu masalada tadqiqot olib borish bugungi kunda zaruratga aylanib bormoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bunda mobil aloqa vositalaridan ijtimoiy, iqtisodiy zaruriyat uchun foydalanish muttasil ortdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi aholisining 30 millionga yaqini mobil aloqa qurilmalaridan foydalanmoqda [8]. Natijada Internet saytlarning mobil versiyalari ko'payib, ijtimoiy tarmoqlar messenjer ko'rinishiga o'tmoqda. Shu bois hozirda mobil messenjerlar yaratilishi yoshlarni xorijiy

ijtimoiy tarmoqlarga qiziqishini oshirmoqda. Nazarimizda yaqin istiqbolda milliy segment saytlarning mobil sahifalari rivojlanib borishidan dalolat bermoqda. O'zbekistonda milliy resurslar, ya'ni milliy saytlardan foydalanuvchilarning 72,4 % aynan mobil dasturlar orqali kirgani aniqlandi. Bunday jarayon raqamli jamiyat rivojini ta'minlovchi omil sifatida milliy saytlarni mobil dasturlar uchun qulay bo'lgan segmentda tashkil etish maqsadga muvofiq ekanligini anglatadi. Bu borada messenjerlar rivojlanmaganligi yoshlarni milliy ijtimoiy tarmoqlarga jalb etish masalasini ortga surmoqda.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 89-maqsadida [9] fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada mustahkamlash belgilab qo'yilgan. Bunda "uz" domen zonasi Internet tarmog'idagi kiberxavfsizlikni ta'minlashda asosiy yo'nalishlar, elektron hukumat va muhim axborot infratuzilmasiga taalluqli boshqa yo'nalishlarni himoya qilish bo'yicha kompleks vazifalarni amalga oshirish orqali mamlakat xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu muammoning echimi bevosita Internet tarmog'ida tarqatilayotgan milliy g'oya va mafkuraga zid axborot bilan bog'liq. Internet tizimida xavfsizlikni ta'minlash va milliy segmentlardan samarali foydalanishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida O'zbekistonda 2024-yilga kelib, internet tarmog'idagi milliy saytlar soni 133 mingtadan oshdi [10].

Internet resurslarini kontent tahlili natijasida quyidagilar aniqlandi: O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlariga xavf solayotgan axborot xurujida xakerlar va kiberjinoyatchilar faol ishtirok etmoqda. Kiber Internet tarmoqlari, jumladan, «UzNet»da O'zbekiston axborot xavfsizligini buzishga harakat qiluvchi ma'lumotlar, munosabatlar joylashtirilgan. Ulardan 15,0%ni xakerlar tomonidan qilingan noqonuniy harakatlar tashkil qilgan. Shuningdek, global tarmoqda aholi ongini buzish, unga ta'sir o'tkazishga bo'lgan turli urinishlar 16,3%ni, mish-mishlar tarqatish 14,8 %ni, ijtimoiy islohotlar jarayoni tanqidi 10,5%ni, diniy ekstremistik ruhdagi tashviqot 8%ni tashkil qilgan. [11]

Internet foydalanuvchilari orasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalariga ko'ra, talabalar milliy saytlardan foydalanishi jadallashgani kuzatildi. Respondentlarning 10%i raqamli jamiyat mazmuni, uning maqsadi, rivojlanish jarayoni haqida ma'lumot olganini, 20%i tadbirkorlik haqida ma'lumotlarga ega bo'lganini, 15%i badiiy adabiyot o'qishda manba rolini bajarishini qayd etishgan. So'ralganlardan 15%i kursdoshlar bilan aloqa qilishi, axborot almashuvda foydalanishi, 40%i mutaxassisligi haqida axborot bazasidan foydalanishini bildirgan.

Bu borada tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlarda ishtirok etgan respondentlarning 80 foizi ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlardan faol foydalanadilar, buning asosiy sabablari do'stlar va boshqalar bilan muloqot qilish istagi, shuningdek, turli mavzularda fikr bildirish imkoniyati bilan bog'liqligini ta'kidlashdi [12].

Demak, Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar kontent tahlili natijasiga ko'ra, mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan demokratik islohotlar natijalarini tanqid qilish holati ham mavjud. Bundan tashqari Internet tarmog'ida yoshlarni tarkidunyo va o'z joniga qasd qilishga undovchi saytlar ham mavjud.

Empirik sotsiologik tadqiqot natijasida Internet tarmog'ida mamlakatimiz axborot xavfsizligiga salbiy ta'sir qiladigan 2 ta yo'nalishdagi xavf mavjudligi aniqlandi. Bular:

birinchisi, global Internet saytlarida tarqatilayotgan O'zbekistonga nisbatan yolg'on va tajovuzkor mazmundagi axborot majmui;

ikkinchisi, hozirgi kunda kiberjinoyatchilik holatlari mavjud, ya'ni kompyuterdagi konfidential xarakterdagi axborotga oid shaxslararo aloqa xatlari, shaxsiy xususiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar bazasini Internet tarmog'i orqali jamoatchilikka beruxsat ma'lum qilish holatlari.

Shuningdek, Internet tarmog'i tizimida axborot xavfsizligini ta'minlashda milliy segmentlar faoliyatini rivojlantirish maqsadida ta'kidlash lozimki, sohadagi gnoseologik bo'shliqni bartaraf qilish uchun ushbu yo'nalishda muntazam tadqiqotlar olib borish zarur. Bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning murakkabligi kiber internet tarmog'ida joylashgan axborotlar hajmining keng masshtabdaligi, sotsiotexnik jihatdan qiyinligi, bevosita empirik sotsiologik kuzatuvlar davomida avtomatik tahlil natijalari, kompyuterlar orqali kontent tahlil olib borishning murakkabligi bilan bog'liq.

Bundan tashqari, global tarmoqdagi axborotlar ko'lamini, informatsion jarayonlarning jadalligi, odatdagi kontent tahlil, tadqiqot usullari orqali olinadigan natijalar bugungi davr talablariga to'liq javob bermaydi.

Mamlakatimizdagi axborot xavfsizligini ta'minlash uchun Internet tarmog'ida milliy saytlar segmenti o'rnini oshirish, uning mazmunini demokratik islohotlar talablari darajasidagi axborot

TARIX

majmui bilan ta'minlash maqsadga muvofiq. Mazkur sohada kuzatuvlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

birinchidan, Internet tarmog'idagi axborotning bir qismi tashqi xavfni vujudga keltirdi. Uning asosiy sababi O'zbekistonga xorijdan turib axborot xuruji tashkil etilib, ushbu jarayonda xalqaro kiber guruhlar va xorijiy tashkilotlar vakillari birgalikda faoliyat olib bormoqda. Bunda axborot mazmunini ataylab buzib talqin qilish, islohotlarning ijobiy natijalari, boshqaruv tizimidagi kamchiliklarni bo'rttirib ko'rsatish, unga nisbatan aholida ishonchsizlik vujudga keltirishga urinish, yoshlar ongiga salbiy ta'sir o'tkazishga harakat qilinmoqda;

ikkinchidan, Internet tarmog'ida jurnalistlik kasbiga ega bo'lmagan kommunikatorlar tomonidan bloglar, internet forum, ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatidan foydalanib, axborot maydonida ishtirok etish kuchayib bormoqda.

Darhaqiqat, axborot makonida axborotlashuv jarayoni mazmuniga nisbatan bo'lgan tashqi xavfni tashkil qiluvchi omillar o'z faoliyatini individual holda yoki muayyan ijtimoiy guruhlar tarkibida tashkil qilishi mumkin. Mutahassislar fikricha, Internet auditoriyaga tajovuzkorona ta'sir qilishning quyidagi usullari mavjudligini qayd etishgan. Bular:

birinchisi, davlatda konstitutsiyaviy tizimga qarshi axborot xavflari, jumladan, terroristik mazmundagi, radikal diniy g'oyalar va vayronkor mafkuralarni jamiyatda, aholi, ayniqsa, yoshlar orasida tarqatilishi;

ikkinchisi, shaxs ongini manipulyatsiya qilish, uning xulqiga nisbatan dasturlashtirish texnologiyalaridan foydalanib, o'z g'arazli maqsad va fikrlarini amalga oshirish uchun bo'lgan tajovuzkorona harakatlar;

uchinchisi, turli yot g'oya va mafkuralarni Internet foydalanuvchilari orasida tarqatish, muayyan ijtimoiy jarayonlar va ijobiy yutuqlarga salbiy ta'sir qiluvchi asoslanmagan dalillar, yolg'on ma'lumotlarni joylashtirish;

to'rtinchisi, Internet tarmog'ida mamlakatda xakerlar va kiberjinoyatchilar g'oyalarini keng tarqatishga urinish, noqonuniy harakatlarini birga olib borishga chorlash, tajovuzkorona maqsadli ijtimoiy hayotda amalga oshirish uchun hamkorlikda urinishlar;

beshinchisi, jamiyatda aholi orasida mish-mishlar, vahimalar ko'tarish orqali sun'iy ravishda mamlakatdagi barqaror vaziyatni izdan chiqarishga mo'ljallangan, tasdiqlanmagan voqeliklar, xabarlarni tarqatishga bo'lgan urinishlar kabi salbiy holatlar kuzatilmoqda.

Bundan tashqari jamiyatimizda axborot xavfsizligini ta'minlashning samarali vositalaridan biri hisoblangan milliy segment saytlarining qiziqarliligini ta'minlash, koronavirus pandemiyasi kabi favqulodda holatlar davrida inson manfaatlarini himoyalashga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Hozirda Internet tarmog'idagi axborot resurslarini boyitish, xususan, milliy segmentga mansub saytlarni rivojlantirish va yoshlarni buzg'unchi g'oya va mafkuralar ta'siridan himoya qilishda quyidagi ijtimoiy muammolarga duch kelinmoqda:

1) Internet tarmog'idagi O'zbekiston milliy veb-saytlari soni va unda joylashtirilgan axborotning jozibadorligi, auditoriyada voqealar rivojiga bo'lgan munosabat bildirish tezkorligi va sifati bo'yicha xalqaro talablardan ortda qolmoqda;

2) mamlakatimizda internet milliy segmenti saytlari orqali aholini axborot bilan ta'minlashda tezkorlik, hozirjavoblik, chuqur tahlil etishmaydi. Natijada aholining asosiy qismi xorijiy mamlakatlar saytlarida joylashtirilgan axborotlar tizimidan foydalanmoqda;

3) milliy segment saytlaridagi agressivlik, mahalliy va hududiy muammolarga o'ralashib qolish, masalaga tarixiy, falsafiy, iqtisodiy jihatdan yuzaki yoshdashuv mavjudligi, bu borada mutaxassislar etishmasligi natijasida yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan tarqatilayotgan turli buzg'unchi g'oyalar, vayronkor, radikal mafkuralarga berilib ketish kabi salbiy holatlari mavjud;

4) foydalanuvchilarda sportga oid axborotga qiziqish yuqori bo'lsa-da, biroq, milliy axborot resurslari tarkibida ushbu mavzuga oid argumentlar, turli statistik ma'lumotlar bilan asoslangan qiziqarli, ma'lumotlar geografiyasi etarli emas;

5) tadbirkorlik va kichik biznes sohasidagi axborot majmuiga bo'lgan ijtimoiy talab ortib borsa-da, ammo milliy segmentdagi saytlarga bu boradagi turli foydali axborotlar joylashtirilishi soni va sifati ijtimoiy talab darajasida emas.

Asosiy muammo mamlakatimizda kommunikativ infrastruktura faoliyati, hozirgi davrning jadal taraqqiyot etayotgan talablari darajasida emasligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2022. - B. 127.
- 2.Bell D. The Coming of Post-industrial Society. A Venture in Social Forecasting. N.Y., Basic Books, Inc., 1973. - R. 39-59.
- 3.Masuda Y. "The Information Society". Washinton. D.S., USA., 2020. – R. 165.
- 4.Hayashi Y. "Information Security Risk Managment". Conference. Publisher: IEEE., 2020. – R. 95.
- 5.Castells M. The Rise of the Network Society: The Information Age: Economy, Society and Culture: Vol. I. Malden, MA; Oxford, UK: Blackwell, 1996. - R 594.
- 6.Bekmurodov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya. Toshkent: "Yoshlar". 2020. - B 9.
- 7.Tashmuxamedova D. Virtual tarmoqlar O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy rolini shakllanish omili sifatida. Sos.f.d. diss. avtoref. – Toshkent: 2024. – B. 28.
- 8.Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumoti. <https://kun.uz/> (01.05.2024.)
- 9.2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. <https://lex.uz/docs/5841063> (25.03.2024 y.).
- 10.Statistika. URL:<https://cctld.uz/stat/> (16.12.2024 y.).
- 11.Statistika. <https://kun.uz/news/> (10.01.2024 y.).
- 12.Tashmuhamedova D., "O'zbekiston yoshlari va virtual olam: tadqiqot natijalari asosida" Monografiya. «Complex print» nashriyoti, - Toshkent: 2024 y. – B. 41.